

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA KATTA VA TAYYORLOV GURUHLARDA INGLIZ TILINI O'RGATISH METODIKASI

Bahronova Maftuna Farhodovna

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

Akbarova Hilolaxon Erkinjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi tarbiyalanuvchilarga qo'shimcha til sifatida chet tillarini samarali o'rgatish metodlari haqida so'z boradi. Bugungi kunda xorijiy tillarni bilish va o'rganish ko'nikmasini rivojlantirish ta'limning ajralmas qismlaridan biri bo'lib bormoqda. Shiddat bilan o'zgarayotgan dunyoda, o'z ona tilini bilishdan tashqari, yana bir necha chet tillarini o'rganish va bilish muhim omillardan biri hisoblanmoqda.*

Kalit so'zlar: *ingliz tili, bolalarga til o'rgatish, metodika, bolalar qiziqishi, ta'lim texnologiyalari, samarali ta'lim, ikkinchi til o'rni.*

Annotation: *This article talks about methods of effective teaching of foreign languages as an additional language to pupils in preschool educational institutions. Today, the development of the ability to know and learn foreign languages is becoming one of the integral parts of education. In the rapidly changing world, in addition to knowing one's mother tongue, learning and knowing several foreign languages is considered one of the most important factors.*

Keywords: *English language, teaching children a language, method, children's interest, educational technologies, effective education, the place of a second language.*

Til bu asosiy kommunikatsiya vositasidir. Har bir inson o'z ona tilini mukammal bo'lgan holatda bilishi kerak. Negaki, inson avvalo o'z tilini mukammal bilmas ekan, ikkinchi til yoki xorijiy tillarni o'rganishga qiyinalishi mumkin. Hozirgi paytda mamlakatimizda rivojlanib borayotgan tillardan biri bu ingliz tili hisoblanadi. Bunga qiziqish ham, e'tibor ham yuqori. Ingliz tili nafaqat maktab va universitetlarda, balki ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham ta'limning tarkibiy qismiga aylandi. Ingliz tilini o'rganish bolalarning dunyoqarashini, bilimni boyitishi barobarida jahon standartlari asosida ta'lim olishlariga ham yordam beradi. Ingliz tilining biz uchun foydali tomonlari ko'p: birinchidan, katta imkoniyatlar eshigini ochadi, chunki dunyoning yarmidan ko'p mamlakatlarida birinchi til sifatida ingliz tili tan olingan bo'lib, biz sayohat yoki o'qish uchun borsak, qiyinchiliklarsiz gaplasha va tushuna olamiz. Ikkinchidan, qancha ko'p til bilsak, asosan ingliz tilini bilsak, ish topish biz uchun qiyinchilik tug'dirmaydi.

Avvalambor, ingliz tili o'qitish metodikasi yaqin yillargacha maktab yoshidagi bolalarga qaratilgan edi. Endi bo'lsa, ota-onalar bolalari ingliz tilini iloji boricha erta, ya'ni bog'cha yoshidanoq o'rganishini xohlashmoqda. Ma'lumki, maktabgacha ta'lim tashkilotida 5-6 yosh bolalar bilan ishlash va ularga ingliz tilini o'rgatish biroz mashaqqat va mehnat talab qiladi, chunki har bir bola bilan alohida ishlash, uning xarakterini o'rganish va xarakteriga moslashish murakkab jarayondir. Lekin, bolalarni maktabgacha bo'lgan yosh oralig'ida ingliz tilini o'rgatishni boshlash juda ham qulay fursatdir. Bu yoshdagi bolalar til hodisalarga sezgirligi va tez anglab olishi bilan ajralib turadi. Olimlarning aytishicha, bola uchun yangi tilni yoki ikkinchi tilni o'rgatmoqchi bo'lsak, uni tug'ilgan chog'idayoq boshlash samaralidir. Keyinchalik bola tilga ochiq bo'ladi va har qanday tilni o'rganishda muammolarga duch kelmaydi. 6-7 yoshli tayyorlov guruh bolalariga ingliz tili o'rgatishning bir qator metodikalari mavjud.

Bilamizki, tashkilot tarbiyalanuvchilari, ya'ni bog'cha yoshidagi bolalar, ko'proq o'yin tarzida olib boriladigan mashg'ulotlarga qiziqishadi. Shuning uchun, ingliz tilini o'rgatishning eng samarali usullaridan biri bu o'yin metodidir. O'rgatilayotgan mavzu o'yin tarzida tushuntirilsa yoki olib borilsa, bu bola xotirasida mustahkam saqlanib qoladi va o'rganishi osonroq bo'ladi.

Rasmi ko'rgazmalar yoki reallika asoslangan narsalardan foydalanish. O'rgatayotgan mavzuyimizga mos rasmi ko'rgazmalarbolib kelish yoki hayotimizda uchraydigan narsalardan foydalanish. Misol uchun, mevalar mavzusini o'rgatmoqchimiz va mevalarni darsga olib kelsak, bolalar ushlab ko'rib o'rganishi, ham qiziqarli, ham oson kechadi. Qolaversa, qo'l motorikalari ham rivojlanadi.

Musiqali harakatlar. Bizga ma'lumki, bolalar qiziquvchan va tez zerikuvchan bo'lishadi. Har bir o'tilgan mavzuga mos qo'shiq topish va uni bolalar ishtiroki orqali kuylatish, bolaga o'rgatilgan mavzuni eslab qolishida samarali metod sanaladi. Hamda, shu tilga bo'lgan qiziqishi va intilishini yanada oshiradi.

Metodika to'g'ridan to'g'ri o'z ichiga ta'limni qamrab olishi, bolalar qiziqishi, til qobiliyatining qay darajadali va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bolalarda chet tillariga bo'lgan ijobiy munsobatni yaratishga, bolaning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga va o'z fikrlarini erkin ifoda etishga ham xizmat qilishi kerak. Bundan tashqari, har bir tilni o'rgatishda, uni qay darajada jahon standartlariga mosligi, unga bo'lgan talab va bolani qiziqishiga qarab, bolaga birinchi yoki ikkinchi tilni tanlash ham asosiy o'rin tutadi.

Berilgan ma'lumotlardan xulosa qiladigan bo'lsak, maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar uchun turli pedagogik usullar va aniq tuzilgan rejalar asosida ingliz tilini o'rgatish samaralidir. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda, xorijiy tillarni bilish eng muhim va keraklidir. Til o'rganish kishilik jamiyatida bag'oyat muhim sohalardan biri hisoblanishi va hayotimizda, tabiiy muhitda muhim ro'l o'ynashi ham sir ema. Undan

tashqari, bolalar uchun yoshligidan biror bir tilni o'rgatishga bo'lgan e'tibor ular uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asiljonova Sh. "Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilariga ingliz tili o'qitishning zamonaviy usullari" 2024. 78-88b.
2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 13(Special Issue 6). <https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116>
3. Isakulova, B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, 2(1), 615–619. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060>
4. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, 1(11), 234–239. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161>
5. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228>, <https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339>
6. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781> <http://multidisciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104>
7. Jalolov J. "Chet tili o'qitish metodikasi" Toshkent, 2012. 4b.
8. Mirhaydarova Z. "Chet tili o'rgatish metodlari" Toshkent, 2019. 80-81b.
9. Mustafoyeva S. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'rgatish usullari" 2022. 38-41b.
10. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, 1(7). <https://spast.org/ojspath/article/view/5086>
11. Usmonova U. "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ingliz tili" 2021.
12. Yuldashova, N. A. qizi, & Ziyadulloyeva, M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners' communicative competence. *Golden Brain*, 2(1), 572–575. Retrieved from <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050>